




Eng ko'p beriladigan savollar

Kollej uchun jamg'arish dasturi haqida

Kengaytirilgan talqin

2025-2026 o'quv yili



Oilalar bilishi kerak bo'lgan Top 5 narsalar

1. NYC davlat maktabida o'qiyotgan bolalar bog'chasi, birinchi sinf, ikkinchi sinf, uchinchi sinf yoki to'rtinchi sinf o'quvchilari bo'lgan barcha oilalar (jumladan, ishtirok etuvchi charter maktablari) oilaviy daromadi yoki immigratsiya maqomidan qat'i nazar, Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program)da ishtirok etish huquqiga ega.
2. Agar mos kelsa hamda siz undan chiqishni va qatnashmaslikni tanlamasangiz, farzandingiz Dasturda **avtomatik ravishda ro'yxatdan o'tadi**.
3. Ro'yxatdan o'tgach, sizga farzandingizning bepul NYC Stipendiya hisobini (NYC Scholarship Account) faollashtirish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan Xush kelibsiz bukleti taqdim etiladi, unda farzandingiz nomidan NYC Kids RISE tomonidan dastlabki 100\$ beriladi.
4. Farzandingizning NYC Stipendiya hisobini faollashtirgandan keyin, siz qo'shimcha mukofotlarga ega bo'lish uchun Asosiy bosqichlar (Building Blocks) deb ataluvchi boshqa boshlang'ich qadamlarni ham bajara olasiz.
5. NYC stipendiya hisoblaridagi mablag'lar kollej yoki kasbiy tayyorgarlik bilan bog'liq turli xarajatlar uchun ishlatilishi mumkin.

Mundarija

| | |
|--|-----------|
| DASTUR ASOSLARI | 1 |
| MUVOFIQLIK VA ISHTIROK ETISH | 3 |
| NYC STIPENDIYA HISOBI (NYC SCHOLARSHIP ACCOUNT) | 5 |
| KOLLEJ UCHUN SHAXSIY JAMG'ARMA HISOBINGIZ | 9 |
| JAMG'ARMA RAG'BATI (SAVINGS MATCH) | 11 |

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturida (Save for College Program) – bu stipendiya va jamg'arma dasturi bo'lib, u NYC Kids RISE Inc. nomli notijorat tashkiloti tomonidan Nyu-York shahri Ta'lim Departamenti va Nyu-York shahri ma'muriyati hamkorligida boshqariladi. NYC Kids RISE Nyu-York shtatining 529 Kollej Jamg'arma Dasturi bilan na hamkorlik qiladi, na uning rasmiy tarqatuvchisi hisoblanadi hamda investitsiya jalb qilmaydi yoki investitsiya bo'yicha maslahat bermaydi. Nyu-York shahri va NYC Ta'lim Departamenti NY 529 dasturi boshqaruvchisi yoki istalgan kollej jamg'arma hisoblari yoki boshqa investitsiya vositalarini – shu jumladan, oilalar Kollej uchun jamg'arish dasturi orqali o'rganadigan vositalarni – tasdiqlamaydi, tavsiya qilmaydi, nazorat qilmaydi va ularga egalik qilmaydi hamda ular bilan bog'liq emas.

**NYC
KIDS
RISE** | **Save for College
Program**

DASTUR ASOSLARI

1. NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) nima?

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturi – bu barcha NYC davlat maktablari o'quvchilari uchun, ularning oilaviy daromadi yoki immigratsion maqomidan qat'i nazar, kollej va kasb-hunar tayyorgarligini yanada ochiq va qulay qilish maqsadida ishlab chiqilgan stipendiya va jamg'arma dasturidir.

Bolalar bog'chasidan boshlab, NYC davlat maktablariga (shu jumladan ishtirokchi charter maktablarga) qabul qilingan har bir o'quvchiga, agar ota-onasi yoki vasiy Kollej uchun jamg'arish dasturi dan "chiqishni" tanlamasa, kelajakdagi oliy ta'limi uchun boshlang'ich 100\$ bilan NYC Stipendiya hisobi (NYC Scholarship Account) avtomatik tarzda ochiladi. Oilalar, dastur doirasida farzandlari foydasiga o'zlariga tegishli kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun jamg'arma hisobini ochish va/ yoki ulash orqali, ushbu hisobga yo'naltiriladigan qo'shimcha stipendiya mukofotlarini qo'lga kiritishi mumkin. Shundan keyin, oilalar o'z moliyaviy imkoniyatlariga mos ravishda turli usul va miqdorlarda jamg'arishni boshlashlari mumkin. Hamjamiyatlar ham har bir bolaning muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida Hamjamiyat stipendiyalari (Community Scholarships) orqali o'quvchilar guruhining NYC Stipendiya hisoblariga qo'shimcha mablag' ajratishlari mumkin.

NYC Stipendiya hisoblariga ajratilgan mablag'lar Nyu-York shtatining 529 Kollej Jamg'arma Dasturiga *To'g'ridan-to'g'ri reja (Direct Plan)*¹ jamg'arma hisobida investitsiya qilinadi va ushbu hisob NYC Kids RISE notijorat tashkiloti tomonidan ishtirokchi o'quvchilar nomidan boshqariladi va yuritiladi.

Umuman olganda, Kollej uchun jamg'arish dasturi ota-onalar va vasiylar, oila a'zolari, do'stlar, maktablar, hamjamiyatlar, bizneslar va hukumatning birgalikda harakat qilishiga – har bir bola uchun ta'limiy va iqtisodiy muvaffaqiyat kutilmalarini qo'llab-quvvatlash va moliyaviy aktivlar yaratishga imkon beradi.

¹ NYC Kids RISE Nyu-York shtatining 529 Kollej Jamg'arma Dasturi bilan na hamkorlik qiladi, na uning rasmiy tarqatuvchisi hisoblanadi hamda investitsiya jalb qilmaydi yoki investitsiya bo'yicha maslahat bermaydi. Nyu-York shahri va NYC Ta'lim Departamenti NY 529 dasturi boshqaruvchisi yoki istalgan kollej jamg'arma hisoblari yoki boshqa investitsiya vositalarini – shu jumladan, oilalar Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) orqali o'rganadigan vositalarni – tasdiqlamaydi, tavsiya qilmaydi, nazorat qilmaydi va ularga egalik qilmaydi hamda ular bilan bog'liq emas.

2. Kollej uchun jamg'arish dasturining (Save for College Program) "stipendiya" qismi qanday ishlaydi?

Farzandingiz dasturga ro'yxatga olingach, NYC Kids RISE uning nomidan NYC Stipendiya hisobini (NYC Scholarship Account) ochadi va ta'limiy kelajagi uchun avtomatik tarzda 100\$ ajratadi. Ota-onalar yoki vasiylar NYC Stipendiya hisoblariga na pul qo'yishlari, na undan mablag' yechishlari mumkin. Ushbu hisobdagi mablag'lar faqat ishtirokchi o'quvchi maktabni tamomlaganidan so'ng, oliy ta'limga oid tasdiqlangan xarajatlar uchun ishlatiladi. Vaqt o'tishi bilan NYC Kids RISE sizning oilangizga farzandingizning NYC Stipendiya hisobiga ko'proq mablag' yig'ish imkoniyatlarini taqdim etadi. Hamjamiyat tashkilotlari, bizneslar, qo'shnilar va boshqa shaxslar ham farzandingizning kollej va kasb-hunar maqsadlariga erishishiga ko'maklashish uchun o'quvchilar guruhining NYC Stipendiya hisoblariga qo'shimcha mablag' qo'shishlari mumkin.

NYC Kids RISE - notijorat tashkilot bo'lib, stipendiya mablag'lariga ishtirokchi o'quvchilar nomidan egalik qiladi va ularni boshqaradi. Ushbu mablag'lar NY 529 *Direct Plan* ga investitsiya qilinadi - bu hisob turi aynan oilalarga oliy ta'lim uchun jamg'arishda yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan. NYC Stipendiya hisoblari vaqt o'tishi bilan moliyaviy bozorlar va investitsiya natijalariga qarab daromad keltirishi yoki zarar ko'rishi mumkin.

Agar siz muvofiq keluvchi bolaning ota-onasi yoki vasiyasi bo'lsangiz va dasturdan chiqishni tanlamasangiz, NYC Kids RISE farzandingiz nomidan ushbu NYC Stipendiya hisobini ochadi va uni mablag' bilan ta'minlaydi. Farzandingiz uchun NYC Stipendiya hisobi ochilgach, siz NYC Kids RISE tomonidan tayyorlangan Xush kelibsiz bukletini olasiz. Farzandingizning NYC Stipendiya hisobiga vaqt o'tishi bilan ajratilgan stipendiya mablag'larini faollashtirish va ko'rish uchun:

- Sizdan **HECH QANDAY** pul qo'yish talab etilmaydi
- Sizdan **HECH QANDAY** Ijtimoiy himoya raqami (Social Security Number, SSN), soliq to'lovchining individual identifikatsiya raqami (Individual Taxpayer Identification Number, ITIN), bank hisobi yoki kredit karta ma'lumotlarinigizni taqdim etish talab etilmaydi
- Sizdan **HECH QANDAY** iqtisodiy holat yoki immigratsion maqom haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish talab etilmaydi
- Ishtirok etish uchun eng kam yoki eng ko'p daromad talabi **YO'Q**.

3. Kollej uchun jamg'arish dasturining (Save for College Program) "jamg'armalar" qismi qanday ishlaydi?

Farzandingiz NYC Stipendiya hisobini (NYC Scholarship Account) olgach, siz va oilangiz uchun mos bo'lgan kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun jamg'arma rejasini qanday tuzish haqida qo'shimcha ma'lumot olasiz. Farzandingizning NYC Stipendiya hisobiga investitsiya qilingan mablag'ni oshirish uchun, siz dastur doirasida farzandingiz foydasiga o'z nomingizga kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun jamg'arma hisobini ochishingiz va/yoki ulashingiz mumkin.

Farzandingizning kelajakdagi ta'limi uchun NYC Kids RISE tomonidan boshqariladigan NYC Stipendiya hisobidan farqli o'laroq, ulangan jamg'arma hisobi sizning oilangizga tegishli bo'ladi. Siz, qarindoshlaringiz va do'stlaringiz ushbu hisobga to'g'ridan-to'g'ri hissa qo'shishingiz mumkin. Siz tanlagan jamg'arma hisobining turiga qarab, oilangiz NYC Kids RISE Jamg'armalar trekeri orqali farzandingizning NYC Stipendiya hisobi bilan birga o'z jamg'arma hisobingizdagi mablag'ni ham onlayn kuzatib borishi mumkin.

Jamg'arma hisobingiz uchun mavjud opsiyalar haqida ma'lumot olish uchun nyckr.org/options-faq saytiga tashrif buyuring, nyckr.org/events-faq manzilida NYC Kids RISE tomonidan o'tkaziladigan virtual seminarda qatnashib, 833-KID-RISE (833-543-7473) raqamiga qo'ng'iroq qiling, info@nyckidsrise.org emailiga yozing yoki NYC Kids RISE vakili bilan suhbatlashish uchun uchrashuv belgilang.

Shuningdek, NYC Moliyaviy imkoniyatlarni rivojlantirish markazida bepul moliyaviy maslahat olish uchun uchrashuv belgilashingiz mumkin. nyc.gov/talkmoney orqali uchrashuv band qiling.

4. Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) nima uchun yaratilgan?

Farzandning ta'limiy kelajagi uchun jamg'arish qiyin bo'lishi mumkin. Ko'plab oilalar uchun farzandini kollejga yuborish imkonsizdek tuyuladi. NYC Kids RISE, Nyu-York shahri va NYC davlat maktablari hamkorligida, oilalarni farzandlari maktabga ilk qadam qo'ygan kundan boshlab kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun jamg'arish va rejalashtirishda qo'llab-quvvatlash maqsadida Kollej uchun jamg'arish dasturini yo'lga qo'ydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kollej uchun 1\$ dan 500\$ gacha jamg'armaga ega bo'lgan bolalar kollejga o'qishga kirish ehtimoli uch baravar, uni tamomlash ehtimoli esa to'rt baravardan yuqori bo'ladi. Tadqiqotlar shuningdek, kollejda o'qigan bolalar umri davomida ancha yuqori maosh olishlari va ishsizlik xavfi kam bo'lishini ko'rsatmoqda.

MUVOFIQLIK VA ISHTIROK ETISH

5. Kollej uchun jamg'arish dasturida (Save for College Program) kimlar ishtirok etishi mumkin?

2025-2026 o'quv yilidan boshlab, NYC davlat maktablariga (shu jumladan, ishtirokchi charter maktablarga) qabul qilingan bolalar bog'chasidan tortib to to'rtinchi sinfgacha bo'lgan har bir o'quvchi, oilasining daromadi yoki immigratsion maqomidan qat'i nazar, Kollej uchun jamg'arish dasturida ishtirok etishi mumkin.

Shuningdek, geografik 30-maktab okrugidagi 39 ta sinov maktabida bolalar bog'chasidan beshinchi sinfgacha o'qiyotgan har bir o'quvchi ushbu dasturda ishtirok etish huquqiga ega.

Mos bo'lgan o'quvchi dasturga ro'yxatga olinishi uchun ishtirokchi maktabda kamida 60 kun davomida tahsil olgan bo'lishi kerak. Agar siz dasturdan chiqishni tanlamagan bo'lsangiz, farzandingiz sentyabr yoki yanvar oyida avtomatik tarzda Kollej uchun jamg'arish dasturiga ro'yxatga olinadi. NYC Kids RISE farzandingiz nomidan boshlang'ich 100\$ bilan NYC Stipendiya hisobini (NYC Scholarship Account) ochadi.

6. Qanday ishtirok etaman?

Agar farzandingiz Kollej uchun jamg'arish dasturida (Save for College Program) ishtirok etishga muvofiq bo'lsa, boshlash juda oson! Bu qanday amalga oshiriladi:

- Farzandingizning maktabidan Chiqish davri (Opt-out Period) boshlanganligi haqida bildirishnoma olganingizda, **shunchaki hech qanday harakat qilmang** (o'sha paytda dasturdan Chiqish tartibi (Opt-out Process) haqida ma'lumot olasiz).
- Chiqish davri tugagach, farzandingiz avtomatik tarzda Kollej uchun jamg'arish dasturiga ro'yxatga olinadi va NYC Kids RISE uning nomidan boshlang'ich 100\$ bilan NYC Stipendiya hisobini (NYC Scholarship Account) ochadi.
- Siz NYC Kids RISE tomonidan tayyorlangan **Xush kelibsiz bukleti (Welcome Booklet)** ni olasiz - u orqali qo'shimcha ma'lumot va ko'rsatmalar bilan tanishasiz. Agar siz kuzda dasturdan chiqishni tanlamasangiz, farzandingizning hisobini yangi yilning yanvar oyidan boshlab faollashtirishingiz mumkin bo'ladi. (E'tibor bering: farzandingiz keyinchalik ro'yxatdan o'tsa, faollashtirish vaqti o'zgarishi mumkin.)
- Xush kelibsiz bukletini (Welcome Booklet) olganingizdan keyin, quyidagi havolaga o'ting: nyckr.org/activate-faq va farzandingizning NYC Stipendiya hisobini **faollashtiring**. Onlayn platforma - Jamg'armalar trekerida (Savings Tracker) ro'yxatdan o'tgach, siz farzandingizning NYC Stipendiya hisobini vaqt o'tishi bilan kuzatib borishingiz mumkin bo'ladi. Shuningdek, siz Dasturdagi boshqa asosiy bosqichlarni qanday amalga oshirish haqida ma'lumot olasiz.

7. Farzandingizning bepul NYC Stipendiya hisobini (NYC Scholarship Account) qachon faollashtirishim mumkin?

Farzandingiz 2025-yil kuzida NYC davlat maktabida (yoki ishtirokchi charter maktabida) ilk bor bog'cha, 1-, 2-, 3- yoki 4-sinfni boshladi:

Farzandingizning NYC Stipendiya hisobini **2026-yil yanvar oyida** faollashtirib, ko'rishingiz mumkin! Farzandingizning hisobi faollashtirishga tayyor bo'lganda, sizga bu haqda maktabingiz va NYC Kids RISE xabar beradi.

Agar siz boshqa farzandingiz uchun NYC Stipendiya hisobini allaqachon faollashtirgan bo'lsangiz, nyckr.org/login-faq manzili orqali Jamg'armalar trekeriga qayta kirishingiz va yanvar oyida yangi huquqqa ega bo'lgan farzandingizni qo'shishingiz mumkin.



Hozircha dastur haqida batafsil ma'lumotni nyckr.org/start-faq saytida o'qing yoki nyckr.org/events-faq manzilida onlayn seminarlarga qo'shiling.

Farzandingiz hozirda 1-, 2-, 3- yoki 4-sinfda o'qiyapti va u 2024-2025 o'quv yili davomida NYC davlat maktabida (yoki ishtirokchi charter maktabida) ta'lim olgan:

Tabriklaymiz! Agar siz dasturdan chiqishni tanlamagan bo'lsangiz, farzandingizda kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun **boshlang'ich 100\$** bilan bepul NYC Stipendiya hisobi allaqachon mavjud. Hisobni faollashtirish va ko'rish uchun quyidagi bosqichlarni bajaring hamda **qo'shimcha 25\$ mukofot ishlab oling.**



nyckr.org/register-faq saytiga tashrif buyuring. Farzandingizning uy pochta indeksi, tug'ilgan sanasi va O'quvchi ID raqamini kiriting. Keyin "Yuborish" tugmasini bosing. Maktabingizdan ham yordam so'rashingiz mumkin!

8. Immigratsion maqom bolaning qatnashish imkoniyatiga qanday ta'sir qiladi?

Ta'sir qilmaydi! Barcha huquqqa ega o'quvchilar immigratsion maqomidan qat'i nazar Kollej uchun jamg'arish dasturida (Save for College Program) ishtirok etishlari mumkin.

Oilalar farzandini dasturga ro'yxatga olish va NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) ega bo'lishi uchun hech qanday Ijtimoiy himoya raqami (Social Security Number, SSN) yoki Soliq to'lovchining individual identifikatsiya raqami (Individual Taxpayer Identification Number, ITIN) taqdim etishlari shart **emas**.

Biroq, agar siz farzandingiz foydasiga o'z nomingizga kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun jamg'arma hisobini ochib, NYC Stipendiya hisobi bilan birga jamg'arishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, bunday jamg'arma hisoblarini ochish uchun SSN yoki ITIN talab etilishini e'tiborga oling. Bundan tashqari, agar siz NY 529 *Direct Plan* ni jamg'arma varianti sifatida ochish va ulashni tanlasangiz, tasdiqlangan AQSH manzili bilan AQSH fuqarosi yoki doimiy rezidenti sifatida Ichki daromadlar xizmati (Internal Revenue Service, IRS) ta'rifiga mos kelishingiz kerak.

Siz farzandingiz uchun NYC Kids RISE tomonidan ochiladigan va boshqariladigan bepul NYC Stipendiya hisobini olish uchun farzandingiz nomidan o'z nomingizga hisob ochishingiz **shart emas**.

9. Agar men dasturdan chiqishni tanlamasam, farzandimni Kollej uchun jamg'arish dasturiga (Save for College Program) ro'yxatga olish uchun NYC Kids RISE mendan va farzandimdan qanday ma'lumotlarni oladi?

NYC Kids RISE har bir ishtirokchi o'quvchi uchun NYC Davlat maktablaridan quyidagi ma'lumotlarni oladi:

- Dastur uchun o'quvchining yagona identifikatsiya raqami;
- O'quvchining to'liq ism-familiyasi;
- O'quvchining tug'ilgan sanasi;
- O'quvchining uy manzili;
- O'quvchining uy manzili o'zgargan yoki yo'qligi;
- O'quvchining uy telefon raqami;
- O'quvchining maktab nomi;
- O'quvchining joriy sinf darajasi;
- O'quvchining uyida so'zlashiladigan til(lar);
- Agar mavjud bo'lsa, o'quvchining NYC davlat maktab tizimi ichida yoki undan tashqariga boshqa maktablarga o'tganligi haqida ma'lumot.

NYC Kids RISE, har bir ishtirokchi o'quvchi uchun, eng ko'pi bilan ikki nafar ota-ona yoki vasiy haqida quyidagi ma'lumotlarni ham oladi:

- Dastur uchun ota-onaning yagona identifikatsiya raqami;
- Ota-ona yoki vasiyning to'liq ismi-familiyasi;
- Ota-ona yoki vasiyning email manzili;
- Ota-ona yoki vasiyning uyali va/yoki boshqa telefon raqami.

Bu ma'lumotlar siz farzandingizni maktabga ro'yxatga qo'yayotganingizda to'ldiriladigan "ko'k karta" (blue card) dagi ma'lumotlarga o'xshashdir. Mazkur ma'lumotlar NYC Kids RISE tashkilotiga har bir ishtirokchi bola uchun NYC Stipendiya hisobini (NYC Scholarship Account) yaratish va har bir hisobga boshlang'ich 100\$ mablag' ajratish imkonini beradi. NYC Kids RISE barcha oila ma'lumotlari bo'yicha qat'iy maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga amal qiladi.

10. Shaxsiy ma'lumotlarimizdan qanday foydalaniladi?

Ishtirokchi oilalar haqidagi ushbu asosiy ma'lumotlar talabning NYC Stipendiya hisobini (NYC Scholarship Account) sozlash, Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) bo'yicha oilalar bilan bog'lanish va dasturning muvaffaqiyatini baholash uchun ishlatiladi.

11. VistaShare nima va u Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) bilan qanday bog'liq?

VistaShare – bu NYC Kids RISE bilan shartnoma asosida ishlaydigan texnologik kompaniya bo'lib, u o'quvchilar va ularning ota-onalari/vasiylari haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni xavfsiz tarzda saqlash va NYC Stipendiya hisoblarini (NYC Scholarship Account) yaratish uchun dasturiy ta'minot taqdim etadi. VistaShare tomonidan taqdim etilgan Jamg'armalar trekeri (Savings Tracker) nomli dastur orqali ishtirokchi bolalarning ruxsat etilgan oila a'zolari farzandining NYC Stipendiya hisobini ko'rishlari va xohlasa, o'zlarining kollej va kasb-hunar tayyorgarligi uchun jamg'arma hisoblarini bog'lashlari mumkin.

12. VistaShare mening va farzandimning qanday shaxsiy ma'lumotlariga ega bo'ladi?

VistaShare, texnik yordam ko'rsatish maqsadida ishtirokchilar haqidagi ma'lumotlar saqlanadigan dasturiy ta'minotga kirish huquqiga ega bo'ladi. Dasturiy ta'minot NYC Davlat maktablari tomonidan taqdim etilgan oilalar haqidagi asosiy ma'lumotlarni, har bir ishtirokchiga ajratilgan stipendiya mablag'larining qiymatini va oila o'z farzandining NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) bog'lagan hisob ma'lumotlarini saqlaydi.

13. Agar men ishtirok etishni xohlamasam, nima qilishim kerak?

Agar siz farzandingizning Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program)da ro'yxatga olinishini xohlamasangiz, 30 kun ichida maktabingizga imzolangan chiqish shaklini (opt-out form) qaytarib topshiring yoki NYC Maktab hisobingiz orqali dasturdan chiqish amalini bajaring. Ushbu harakatlardan birini bajarish, farzandingiz: NYC Stipendiya hisobi (NYC Scholarship Account), boshlang'ich 100\$ mablag' yoki kelgusidagi mablag'lardan qabul qilmaydi deganidir. Qo'shimcha tafsilotlar uchun farzandingizning chiqish shakliga qarang yoki NYC Davlat maktablari veb-saytiga tashrif buyuring: nyckr.org/NYCPS

14. Agar men hozir Kollej uchun jamg'arish dasturida (Save for College Program) ishtirok etmaslikni tanlasam, keyinchalik farzandimni qayta ro'yxatga qo'ya olamanmi?

Ha, agar siz dastlab ishtirok etmaslikni tanlagan bo'lsangiz, lekin keyinchalik fikringizni o'zgartirsangiz va farzandingizni dasturga qo'shmoqchi bo'lsangiz, keyinchalik uni qayta ro'yxatga qo'yish mumkin. Oilalarga farzandlarining beshinchi sinfi oxirigacha qayta ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati beriladi. Batafsil ma'lumot uchun nyckr.org/NYCPS manziliga tashrif buyuring.

15. Chiqish bildirishnomasi (Opt Out Notice) muddati tugagandan keyin farzandimning Kollej uchun jamg'arish dasturidagi (Save for College Program) ishtirokini bekor qila olamanmi?

Ha, dastlab ro'yxatga olinganidan keyin ham farzandingizning ushbu dasturdagi ishtirokini bekor qilishingiz mumkin. Batafsil ma'lumot va ko'rsatmalar uchun nyckr.org/NYCPS manziliga tashrif buyuring.

NYC STIPENDIYA HISOBI (NYC SCHOLARSHIP ACCOUNT)

16. NYC Stipendiya hisobidagi (NYC Scholarship Account) pul nimaga ishlatilishi mumkin?

NYC Stipendiya hisobidagi mablag'lar NY 529 *Direct Plan* orqali investitsiya qilinadi va turli tasdiqlangan oliy ta'lim xarajatlari uchun ishlatilishi mumkin. Garchi 529 hisob rasmiy nomda kollej jamg'arma hisobi deb yuritilsa-da, u AQSHda va xorijdagi huquqiy maqomga ega oliy o'quv yurtlaridagi tasdiqlangan oliy ta'lim xarajatlarini qoplash uchun ishlatilishi mumkin. An'anaviy 4 yillik kollej va universitetlardan tashqari, boshqa turdagi mos ta'lim muassasalariga jamoat kollejlari, kasb-hunar

va texnik maktablari, tasdiqlangan amaliyot dasturlari, onlayn daraja dasturlari ham kiradi. Stipendiya mablag'lari o'qish to'lovi, yig'imlar, uskunalar, ayrim turar joy xarajatlari va hatto ko'pincha boshqa stipendiyalar qoplamaydigan darsliklar uchun ham ishlatilishi mumkin. To'liq ro'yxat uchun quyidagi havolaga tashrif buyuring: nysaves.org

Agar dastur ishtirokchisi bolalar bog'chasini tugatganidan keyin 20 yil ichida NYC Stipendiya hisobidagi mablag'lardan foydalanmasa, bu mablag' NYC Kids RISE'ga qaytariladi va kelgusidagi Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.

NYC Stipendiya hisobidagi mablag'lar, hatto ular federal qonun bo'yicha ruxsat etilgan bo'lsa ham, bolalar bog'chasidan 12-sinfgacha bo'lgan ta'lim xarajatlari uchun ishlatilmaydi.

17. Farzandim maktab okrugidan bitiruvga yetmasdan avval boshqa okrugga ko'chib ketisa, uning NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) nima bo'ladi?

Farzandingiz NYC Stipendiya hisobini olgach, agar u Nyu-York shahridagi boshqa davlat maktab okrugi yoki ishtirok etayotgan charter maktabga ko'chsa, bu hisobdan foydalanish huquqi saqlanib qoladi. Farzandingiz, shuningdek, Kollej uchun jamg'arish dasturida (Save for College Program) ishtirok etish bilan bog'liq barcha imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega bo'lib qoladi. Agar farzandingiz NYC davlat maktabi tizimidan chiqsa, u NYC Stipendiya hisobida allaqachon mavjud bo'lgan mablag'dan foydalanishda davom eta oladi, biroq qo'shimcha mukofotlar olish huquqiga ega bo'lmaydi.

18. Farzandimning NYC Stipendiya hisobidagi (NYC Scholarship Account) mablag'ni qanday ko'rishim mumkin?

Farzandingizning NYC Stipendiya hisobini onlayn tarzda ko'rish uchun NYC Kids RISE Jamg'armalar trekeriga (Savings Tracker) tashrif buyuring: nyckr.org/register-faq. Profil yaratish va stipendiya hisobidagi balansni ko'rish uchun bosqichma-bosqich ko'rsatmalarga amal qiling.

19. "O'quvchi ID raqami (Student ID Number)" nima va nima uchun uni Jamag'armalar trekerida (Savings Tracker) ro'yxatdan o'tishda kiritish kerak?

O'quvchi ID raqami - bu NYC davlat maktablari tomonidan har bir o'quvchiga beriladigan yagona identifikatsiya raqamidir. Jamg'armalar trekeri sizdan ushbu raqamni so'raydi, chunki bu sizning shaxsingizni tasdiqlash va farzandingizning ma'lumotlari maxfiyligini himoya qilish uchun zarur. Farzandingizning O'quvchi ID raqamini

farzandingizning baholar varaqasi (report card), mystudent.nyc saytiga kirish orqali yoki bevosita farzandingiz o'qiyotgan maktabdan so'rash orqali topishingiz mumkin. NYC Kids RISE hech qachon ushbu O'quvchi ID raqamiga kirish huquqiga ega bo'lmasligini e'tiborga oling.

20. Kichik miqdordagi jamg'armalar farzandimning kollej va kasb-hunar maqsadlariga erishishga qanday yordam berishi mumkin?

Kollej uchun jamg'arma hisobiga ega bo'lgan va oliy ta'lim bo'yicha rejalarga ega bolalar kollejga borish va uni tamomlash ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, atigi 1\$ dan 500\$ gacha bo'lgan jamg'arma hisobiga ega bolalar kollejga o'qishga kirish ehtimoli uch baravar ko'p, darajaga ega bo'lish ehtimoli esa to'rt baravardan ko'proq bo'ladi. Umid qilnadiki, ishtirokchi o'quvchilarning NYC Stipendiya hisoblari (NYC Scholarship Account) vaqt o'tishi bilan qo'shimcha mukofotlar va Hamjamiyat stipendiyalari (Community Scholarships) hisobiga (investitsiya daromadi yoki zarari ehtimoliga ko'ra) o'sib boradi va bu orqali kollej hamda kasb-hunar tayyorgarligini har bir bola uchun yanada qulay qiladi.

21. Farzandim uchun qanday qilib ko'proq stipendiya mablag'i olishim mumkin?

NYC Kids RISE oilalarga farzandining NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) qo'shimcha mukofotlar ishlab olish imkoniyatlarini taqdim etadi. Birinchi uchta mukofot "3 asosiy bosqich"ni (3 Building Blocks) bajarish uchun taqdim etiladi. Ushbu uchta bosqich farzandingiz kelajagi uchun birgalikda jamg'arish bo'yicha uzoq muddatli hamkorligimizga asos yaratadi. Farzandingizning NYC Stipendiya hisobiga dastlabki 100\$ ga qo'shimcha ravishda, NYC Kids RISE quyidagi har bir Asosiy bosqich bajarilgani uchun ushbu hisobga qo'shimcha 25\$ mukofot kiritadi:



Asosiy bosqich 1

Farzandingizning NYC Stipendiya hisobini nyckr.org/register-faq saytida faollashtiring va ko'ring.



Asosiy bosqich 2

Farzandingiz foydasiga o'z nomingizda kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arma hisobini oching va uni NYC Stipendiya hisobiga ulang - bu orqali siz NYC Stipendiya hisobiga parallel ravishda jamg'arishni boshlashingiz mumkin. Farzandingizning stipendiya hisobiga ulashingiz mumkin bo'lgan ikki xil variantdan birini tanlang: Batafsil: nyckr.org/options-faq.



Asosiy bosqich 3

Ulangan kollej va kasb-hunar jamg'arma hisobingizga kamida 5\$ mablag' qo'ying.

Farzandi birinchi sinfga ilk bor borgan kundan boshlab, 3 ta Asosiy bosqichni to'liq bajargan oilalar **Jamg'arma rag'bati (Savings Match)** mukofotini olish huquqiga ega bo'ladi. NYC Kids RISE siz kiritgan mablag'ni ulangan kollej va kasb-hunar jamg'arma hisob raqamiga maksimal 100\$ gacha dollarga dollar nisbatda moslashtiradi.

Asosiy bosqichlar bo'yicha (jami 75\$) va Jamg'arma rag'bati bo'yicha (100\$) mukofotlar beshinchi sinfgacha amal qiladi. Biroq, bu cheklov 30-geografik okrugdagi 39 ta sinov maktabidan birida o'qiyotgan va Dasturga beshinchi sinf yoki undan yuqori sinfdan qatnasha boshlagan o'quvchilarga tatbiq etilmaydi. Ushbu o'quvchilar 3 ta Asosiy bosqichni bajarish va Jamg'arma rag'bati bo'yicha mukofotlarni sakkizinchi sinfning so'nggi kunigacha olishda davom etishlari mumkin. Hozirda, 2021-2022 o'quv yilida bog'chaga, 2022-2023 yilda birinchi sinfga, 2023-2024 yilda ikkinchi sinfga, 2024-2025 yilda uchinchi sinfga yoki 2025-2026 yilda to'rtinchi sinfga borgan o'quvchilar faqat beshinchi sinf tugaguniga qadar mukofotlar olish huquqiga egadirlar.

Qo'shimcha mukofotlar kelajakda ishtirok etadigan oilalarga e'lon qilinadi.

Farzandingiz NYC Stipendiya hisobini olganidan keyin, u Nyu-York shahridagi istalgan boshqa davlat maktabiga yoki Dasturda ishtirok etayotgan charter maktabga ko'chgan taqdirda ham ushbu hisobdan foydalanishda davom etadi. Shuningdek, farzandingiz ishtirok etish orqali taqdim etiladigan barcha imtiyozlarga egalikni ham davom ettiradi. Agar farzandingiz NYC davlat maktabi tizimidan chiqsa, u NYC Stipendiya hisobida allaqachon mavjud bo'lgan mablag'dan foydalanishda davom eta oladi, biroq qo'shimcha mukofotlar olish huquqiga ega bo'lmaydi.

22. Hamjamiyat stipendiyalari (Community Scholarships) nima? Ular qanday ishlaydi?

Hamjamiyat stipendiyalari - bu mahalliy tashkilotlar, bizneslar, qo'shnilar va boshqa tizimlarning birgalikda harakat qilib, har bir bolaning kelajagiga qo'shimcha sarmoya kiritishlari va bolalarga ularning jamoasi ularning muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlayotganini ko'rsatish imkoniyatidir. Hamjamiyat stipendiyalari - bu jamoa a'zolari tomonidan NYC Kids RISE orqali berilgan xayriyalar asosida o'quvchilarning NYC Stipendiya hisoblariga (NYC Scholarship Account) kiritiladigan moliyaviy hissalaridir. Yig'ilgan mablag'larning 100% qismi to'g'ridan-to'g'ri ajratiladi va tanlangan o'quvchilar guruhining NYC Stipendiya hisoblariga teng miqdorda taqsimlanadi.

Hamjamiyat stipendiyalari oilalarni quyidagilarga undaydi:

- **Harakat qilish va jamg'arish:** Bu oilalarga farzandlarining NYC Stipendiya hisoblarini faollashtirish, hisobdagi mablag'larni ko'rish va qo'shimcha mukofotlar olish uchun zarur qadamlarni tashlashga yanada ko'proq sabab beradi.

- **Boylik va aktivlar yaratish:** Hamjamiyat stipendiyalari har bir o'quvchiga kollej va kasb-hunar ta'limi uchun haqiqiy moliyaviy aktivlarni taqdim etadi, shu bilan birga jamiyatlarda boylik yaratishga yordam beradi va irqiy boylik tafovutiga qarshi kurashadi.
- **Yosh avlodni jamoaviy qo'llab-quvvatlashni namoyon etish:** Hamjamiyat stipendiyalari bolalarga ularning kollej va kasb-hunar orzulariga ularning hamjamiyati qanchalik ishonishini ko'rsatadi! Hamjamiyat stipendiyalari orqali hamjamiyatlar barcha bolalarning muvaffaqiyatga erishishiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va oilalarga kelajak uchun jamg'arishda yolg'iz emasliklarini bildiradi.
- **Umumiy ijtimoiy kapital orqali hamjamiyatni mustahkamlash:** Hamjamiyat stipendiyalari maktablar, oilalar va bola hayotida muhim rol o'ynaydigan jamoaviy muassasa va tizimlarni birlashtiradi. Ushbu aloqalarni chuqurlashtirish orqali biz kuchliroq jamoalarni shakllantiramiz.

Qo'shimcha ma'lumotni Kollej uchun jamg'arish dasturida (Save for College Program) sahifasida o'qing: nyckr.org/d30brief-faq, Avvalgi Hamjamiyat stipendiyalari misollarini bu yerda ko'rishingiz mumkin: nyckr.org/CSinfo-faq.

23. Farzandimning NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) o'z mablag'imni qo'sha olamanmi?

Yo'q, oilalar individual NYC Stipendiya hisoblariga o'z mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri qo'sha olmaydi. NYC Kids RISE oilalarga platforma orqali o'z nomlariga kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arma hisob raqamini ochish va ularni ulashni ko'rib chiqish, shuningdek, ushbu hisobga hissa qo'shishni boshlashni tavsiya qiladi. Hamjamiyat a'zolari, jumladan tashkilotlar va biznes subyektlari, NYC Kids RISE'ga xayriya orqali bir guruh o'quvchilarning NYC Stipendiya hisoblariga hissa qo'sha olishadi.

24. 529 hisobi nima?

529 hisobi - oilalarga oliy ta'lim uchun jamg'arishda yordam berish maqsadida maxsus yaratilgan hisobidir. 529 hisobidagi mablag' vaqt o'tishi bilan ko'payishi mumkin va u soliq imtiyozlariga ega, jumladan daromaddan soliq olinmasligi va shtat darajasida daromad solig'idan chegirmalar olish imkonini beradi. Shu bilan birga, 529 hisobidagi mablag'ning ko'payishi kafolatlanmagan - u qiymatini yo'qotishi ham mumkin. NY 529 *Direct Plan* - bu Nyu-York shtati Bosh nazorati ofisi va Nyu-York Oliy ta'lim xizmatlari korporatsiyasi tomonidan boshqariladigan 529 kollej jamg'arma tarifi hisoblanadi.

25. Stipendiya hisobidagi mablag'lar qanday investitsiya qilinishi to'g'risida kim qaror qabul qiladi?

NYC Kids RISE NYC Stipendiya hisoblariga (NYC Scholarship Account) egalik qiladi va boshqaradi hamda ushbu mablag'lar qanday investitsiya qilinishini belgilaydi. NY 529 *Direct Plan* va uning investitsiya variantlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun nysaves.org saytiga tashrif buyuring yoki [877-NYSAVES \(877-697-2837\)](tel:877-NYSAVES) raqamiga qo'ng'iroq qiling.

26. Ushbu stipendiya farzandimning kelajakda boshqa stipendiyalar olishiga to'sqinlik qiladimi?

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) doirasidagi NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) ega bo'lish yoki Hamjamiyat stipendiyalarini (Community Scholarships) olish, odatda, farzandingizning kelajakda boshqa dasturlar va tashkilotlar orqali turli xil stipendiyalar olishiga to'sqinlik qilmaydi. Biroq, bu holat boshqa stipendiyalarning shartlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Har bir stipendiya dasturining shartlarini diqqat bilan ko'rib chiqing.

27. Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) Nyu-York shtatining o'qish bepul bo'lgan Excelsior Scholarship dasturi bilan qanday bog'liq?

NYC Stipendiya hisobidagi (NYC Scholarship Account) mablag'lar faqat o'qish to'lovi uchun emas, boshqa kollej xarajatlari uchun ham ishlatilishi mumkin. Agar o'quvchi Excelsior Scholarship orqali CUNY yoki SUNY kollejlarda bepul o'qish huquqiga ega bo'lsa, NYC Stipendiya hisobidagi mablag'larni kollejdagi boshqa xarajatlarga sarflash mumkin. Bu xarajatlarga kitoblar, anjomlar, kompyuterlar va yotoqxona hamda ovqatlanish xarajatlari kiradi. Shuningdek, NYC Stipendiya hisobidagi mablag'lar AQSHdagi ko'pchilik ikki yillik va to'rt yillik kollejlarda hamda kasb-hunar o'quv dasturlarida, hattoki ayrim xorijiy mamlakatlardagi o'quv yurtlarida ham ishlatilishi mumkin.

28. Farzandim kollejga borganda bu mablag'dan qanday foydalanadi?

O'quvchilar o'rta maktabda bo'lganida, NYC Kids RISE ular va ularning ota-onalari yoki vasiylariga NYC Stipendiya hisobidan (NYC Scholarship Account) qanday foydalanish bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

29. Farzandim stipendiya hisobidagi mablag‘dan foydalanishi uchun oxirgi muddat bormi?

Ha, NYC Stipendiya hisobidagi (NYC Scholarship Account) mablag‘dan foydalanishning oxirgi muddati – o‘quvchi bog‘chaning yakunlovchi sinfini tamomlaganidan keyin 20 yil ichida. Masalan, agar o‘quvchi 2025-yil iyun oyida bog‘chani tamomlasa, u 2045-yil 30-iyungacha kollej yoki kasb-hunar ta‘limi uchun sarflanishi mumkin bo‘lgan maqsadlarda stipendiya mablag‘idan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Agar shu muddatgacha ishlatilmagan mablag‘ qolsa, u mablag‘ NYC Kids RISE‘ga qaytariladi va keyingi yillarda Kollej uchun jamg‘arish dasturini (Save for College Program) qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.

30. Agar farzandim mablag‘dan foydalanmasa, NYC Stipendiya hisobidagi (NYC Scholarship Account) pulni boshqa bola nomiga o‘tkazsa bo‘ladimi?

Yo‘q, NYC Stipendiya hisobi faqat farzandingizning o‘rta maktabdan keyingi ta‘limi uchun maxsus ajratilgan. Bu hisobdagi mablag‘ boshqa bola nomiga o‘tkazilishi mumkin emas.

31. NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) ega bo‘lish davlat imtiyozlarini olish huquqiga qanday ta‘sir qiladi?

NYC Stipendiya hisoblari NYC Kids RISE tomonidan boshqariladi va ularga egalik qilinadi. Shuning uchun stipendiya hisobiga ega bo‘lish davlat imtiyozlarini olishga murojaat qilayotgan o‘quvchi yoki oilaning arizasiga ta‘sir **qilmaydi**. Agar oila o‘z nomiga kollej va kasb-hunar ta‘limi uchun jamg‘arma hisobini ochib, u yerga mablag‘ jamg‘arsa, bu aktiv ayrim davlat imtiyozlarini olishga ta‘sir qilishi mumkin. O‘z jamg‘arma hisobiga hissa qo‘shish davlat imtiyozlariga qanday ta‘sir qilishi haqida batafsil ma‘lumot olish uchun nyckr.org/infomaterials-faq saytiga kiring va “Kollej uchun jamg‘arish va Davlat imtiyozlari” (“Save for College Program and Public Benefits”) nomli qo‘llanmani yuklab oling.

32. Agar men Nyu-York shahri uy-joy agentligi (New York City Housing Authority, NYCHA) uyida yashasam, NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) ega bo‘lish ijara to‘lovimga ta‘sir qiladimi?

NYC Stipendiya hisoblari NYC Kids RISE tomonidan boshqariladi va ularga egalik qilinadi. Shu sababli, stipendiya hisobiga ega bo‘lish na o‘quvchining, na oilaning NYCHA uy-joy dasturlari yoki Nyu-York shahri Uy-joyini saqlash va rivojlantirish departamenti (Department of Housing

Preservation and Development) orqali beriladigan uy-joy yordami bo‘yicha arizasiga yoki ijara to‘lovlariga ta‘sir qilmaydi. Biroq, agar oila o‘z nomiga kollej va kasb-hunar ta‘limi uchun jamg‘arma hisobini ochib, u yerga mablag‘ qo‘shsa, bu aktiv ariza jarayonida hisobga olinishi mumkin. Jamg‘arma hisobining davlat imtiyozlariga qanday ta‘siri bo‘lishi mumkinligi haqida qo‘shimcha ma‘lumot uchun nyckr.org/infomaterials-faq saytiga kiring va “Kollej uchun jamg‘arish va Davlat imtiyozlari” (“Save for College Program and Public Benefits”) qo‘llanmasini ko‘rib chiqing.

33. NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) ega bo‘lish moliyaviy yordam olish huquqiga ta‘sir qiladimi?

NYC Stipendiya hisoblari NYC Kids RISE tomonidan boshqariladi va egalik qilinadi. Shu sababli, hisobga ega bo‘lish mablag‘ hisobda saqlanayotgan davrda o‘quvchining moliyaviy yordam olish huquqiga ta‘sir **qilmaydi**. Farzandingiz kollej yoki kasb-hunar tayyorgarligiga yaqinlashgani sayin, NYC Kids RISE stipendiya hisobidagi mablag‘ni bolaning ta‘limi uchun ishlatish moliyaviy yordamga qanday ta‘sir qilishi mumkinligi haqida qo‘shimcha ma‘lumot beradi. Buning ta‘siri bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin.

Agar oila o‘z nomiga kollej uchun alohida jamg‘arma hisobida mablag‘ saqlasa, bu jamg‘armalar farzandning moliyaviy yordam paketiga ta‘sir qilishi mumkin. Joriy moliyaviy yordam qoidalariga ko‘ra, o‘z jamg‘arma hisobiga hissa qo‘shish moliyaviy yordam olish huquqiga qanday ta‘sir qilishi mumkinligi haqida qo‘shimcha ma‘lumot olish uchun nyckr.org/infomaterials-faq saytiga kiring va “Kollej uchun jamg‘arish dasturi va uning kelajakdagi moliyaviy yordamga ta‘siri” (“Save for College Program and Impact on Future Financial Aid”) qo‘llanmasini yuklab oling. E‘tibor bering, moliyaviy yordam qoidalari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadi.

34. Stipendiya mablag‘lari maxsus ta‘lim dasturlari uchun ishlatilishi mumkinmi?

Ha, NYC Stipendiya hisobidagi (NYC Scholarship Account) mablag‘lar NY 529 *Direct Plan* qoidalariga muvofiq, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun ayrim xizmatlarni, ularning mos ta‘lim muassasalariga qabul qilinishi va qatnashuvi bilan bog‘liq holda, qoplash uchun ishlatilishi mumkin. Ayrim mos ta‘lim muassasalari maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun maxsus dastur va qo‘llab-quvvatlov xizmatlarini taqdim etadi. Muayyan maktab yoki dastur mosligini tekshirish uchun ushbu manzilga tashrif buyuring: studentaid.gov/understand-aid/eligibility/requirements/intellectual-disabilities.

NY 529 *Direct Plan* doirasida maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun qamrab olinadigan xarajat turlari va boshqa ma‘lumotlar haqida batafsil ma‘lumot olish uchun NY 529 bilan bog‘laning: [877-NYSAVES \(877-697-2837\)](tel:877-NYSAVES) yoki veb-saytga tashrif buyuring: nysaves.org.

35. Agar farzandim kollejga bormasa, nima bo'ladi?

Agar Kollej uchun jamg'arish dasturidagi (Save for College Program) bola kollej yoki universitetga bormasa ham, uning NYC Stipendiya hisobidagi (NYC Scholarship Account) mablag'i hunar va kasb-hunar o'quv markazlari uchun to'lovlar, malakali amaliyot dasturlari, onlayn daraja dasturlari va boshqa tasdiqlangan ta'lim xarajatlari uchun ishlatilishi mumkin. Agar dasturdagi o'quvchi bolalar bog'chasini tugatganidan keyin 20 yil ichida NYC Stipendiya hisobidagi mablag'lardan hech qanday mos ta'lim muassasasida oliy ta'lim bilan bog'liq xarajatlar uchun ushbu mablag'ni ishlatmasa, bu mablag' NYC Kids RISE'ga qaytariladi va kelgusidagi Kollej uchun jamg'arish dasturi ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.

KOLLEJ UCHUN SHAXSIY JAMG'ARMA HISOBINGIZ

36. Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) orqali jamg'arishning qanday opsiyalari mavjud?

Kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arishning ko'plab usullari mavjud. Kollej uchun jamg'arish dasturi orqali siz farzandingizning NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) ulanadigan ikkita jamg'arma hisobini ochishingiz mumkin:

1. NY 529 *Direct Plan* hisobi – bu kollej va kasb-hunar ta'limi uchun oilalarga jamg'arish imkonini berish maqsadida yaratilgan investitsiya hisobidir; va
2. Amalgamated Bankning Kollej uchun jamg'arish dasturi hisobi (Amalgamated Save for College Bank Account) – bu Amalgamated Bank tomonidan taqdim etilgan an'anaviy jamg'arma hisobidir.

Bu ikki variantdan tashqari boshqa usullar ham mavjud. Siz o'zingizning ehtiyojlaringiz va sharoitingizga mos keladigan boshqa variantlarni o'rganishingiz mumkin. Biroq, Kollej uchun jamg'arish dasturi orqali taklif etilayotgan maxsus funksiyalar va imtiyozlar faqat dasturdagi yuqoridagi ikki jamg'arma hisob turiga tegishlidir. NYC Kids RISE hech qanday investitsiya bo'yicha maslahat bermaydi va ma'lum bir jamg'arma hisob turini tavsiya etmaydi.

Ushbu variantlar, hisob ochish tartibi va boshqa ma'lumotlar uchun nyckr.org/options-faq veb-saytiga tashrif buyuring, NYC Kids RISE [833-543-7473](tel:833-543-7473) raqamiga qo'ng'riq qiling, info@nyckidsrise.org emailiga xat yozing yoki nyckr.org/events-faq saytida navbatdagi Kollej uchun jamg'arish dasturi bo'yicha onlayn seminarlarda qatnashing.

37. 529 hisobi bank hisobidan nimasi bilan farq qiladi?

Bank hisoblari ham, 529 hisoblari ham kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arish usuli sifatida xizmat qiladi. Biroq, 529 hisoblari moliyaviy bozorlarga investitsiya qilingan bo'lib, ular ham yuqori potensial risklar, ham yuqori potensial daromadlar bilan bog'liq. An'anaviy bank jamg'arma hisoblari esa odatda Federal depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi (Federal Deposit Insurance Corporation) tomonidan 250 000\$ gacha sug'urtalanadi, ya'ni ular xavfsizroq, lekin foydasi kamroq bo'ladi.² 529 hisoblariga, jumladan NY 529 *Direct Plan* hisobiga hissa qo'shish soliq bo'yicha ba'zi imtiyozlarni beradi, bu esa ko'pchilik bank hisoblarida bo'lmaydi.

529 hisoblari aynan o'rta maktabdan keyingi ta'lim uchun jamg'arish maqsadida yaratilgan. Agar 529 hisobidan mablag' olib ishlatilsa-yu, bu mablag' tasdiqlangan ta'lim xarajatlariga sarflanmasa, daromad qismidan oddiy daromad solig'i sifatida soliq solinadi va bu daromadga 10% jarima solig'i ham qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, chiqarilgan mablag'ga shtat va mahalliy soliq ham qo'llanishi mumkin.

38. Agar men farzandim uchun allaqachon 529 hisobi ochgan bo'lsam, nima bo'ladi?

Agar siz allaqachon NY 529 *Direct Plan* doirasida farzandingiz nomiga 529 hisobiga ega bo'lsangiz, mavjud hisobingizni farzandingizning NYC Stipendiya hisobi (NYC Scholarship Account) bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'lasiz. Shunda siz ikkala hisobdagi mablag' qoldig'ini bir joyda ko'ra olasiz. Hisoblarni qanday bog'lash haqida ko'proq ma'lumot olish uchun nyckr.org/infomaterials-faq saytiga tashrif buyuring va "NY 529 *Direct Plan* hisobini qanday ochish mumkin" ("How to Open a 529 *Direct Plan* Account") nomli qo'llanmani ko'rib chiqing.

Agar siz boshqa shtatdagi 529 tarifidagi 529 hisobga ega bo'lsangiz, uni ishlatishda davom etishingiz mumkin, biroq u Kollej uchun jamg'arish dasturining (Save for College Program) maxsus funksiyalari va imtiyozlariga mos kelmaydi.

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturi hech qanday investitsiya bo'yicha maslahat bermaydi va ushbu hujjatda hech qanday investitsiyaning mosligi yoki mos emasligi haqida tavsiya berilmayapti.

² FDIC tomonidan sug'urta qilinadigan har bir bankda, har bir omonatchi uchun, har bir mulkchilik toifasi bo'yicha standart depozit sug'urtasi limiti 250 000\$ ni tashkil etadi. Bir xil bankda saqlansa ham, turli mulkchilik toifalaridagi depozitlar alohida-alohida har biri kamida 250 000\$ gacha sug'urtalanadi.

39. Agar o'quvchi NY 529 Direct Plan hisobidagi mablag'ni tasdiqlangan ta'lim xarajatlari uchun ishlata olmasa, nima bo'ladi?

Agar 529 tarif hisobidan olingan mablag' tasdiqlangan ta'lim xarajatlari uchun ishlatilmasa, daromad qismi uchun federal va tegishli shtat hamda mahalliy soliq solinadi, shuningdek, 10% miqdorida federal jarima ham qo'llaniladi. Biroq, agar mablag' nogironlik sababli yechib olinsa, unda daromad qismiga federal va shtat hamda mahalliy soliq solinadi, lekin 10% federal jarima qo'llanilmaydi.

40. Agar menda boshqa jamg'arma maqsadlarim yoki qarzlrim bo'lsa, kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arishhaqida qanday fikr yuritishim kerak?

Har bir insonning moliyaviy holati o'ziga xos. Shaxsiy maslahat olish uchun investitsiya bo'yicha mutaxassisga murojaat qilishni yoki NYC moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish markaziga (NYC Financial Empowerment Center) borib, bepul moliyaviy maslahat olishni o'ylab ko'ring. Shahar moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish markazigda siz professional moliyaviy maslahatchi bilan individual uchrashuv o'tkazishingiz mumkin. Ular sizga byudjet tuzishda, jamg'arishda va, jumladan, o'rta ta'lim uchun kelajakni rejalashtirishda yordam beradi. Maslahatchilar sizga qarzlarni kamaytirish, kredit reytingingizni yaxshilash, bank hisobini ochish va boshqa moliyaviy masalalarda ham yordam bera oladi. Yaqin atrofdagi markazda uchrashuv belgilash uchun nyc.gov/talkmoney saytiga tashrif buyuring.

41. Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) qanday moliyaviy savodxonlik imkoniyatlarini taklif etadi?

NYC Kids RISE oilalarga o'z kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arma rejasini tuzishda yordam beradigan vositalar va ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu orqali siz kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arish imkoniyatlari va sizga mavjud moliyaviy resurslar haqida ko'proq bilib olishingiz mumkin bo'lgan farzandingiz maktabida o'tkaziladigan seminarlar va tadbirlarni o'z ichiga oladi. Yaqinlashayotgan Kollej uchun jamg'arish dasturi virtual seminarlar taqvimini quyidagi manzildan topishingiz mumkin: nyckr.org/events-faq

NYC Kids RISE, NYC davlat maktablari bilan hamkorlikda, o'quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv moliyaviy savodxonlik dasturlarini ishlab chiqqan.

NYC Kids RISE Kollej uchun jamg'arish dasturining O'quv dasturi kengaytmasi qo'llanmalari (Curriculum Extension Guides) barcha ishtirokchi sinflar uchun moliyaviy savodxonlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan tushunchalarni o'rganishga mo'ljallangan interaktiv darsliklardir. Bu butun shahar bo'yicha K-3 sinflar

va 30-okrug (District 30) maktablarida K-5 sinflar uchun o'quv kengaytmalarini o'z ichiga oladi. Ushbu kengaytmalar maktablar va o'qituvchilar uchun o'quvchilarga pul, jamg'arish va bu tushunchalarning ularning kelajakdagi kollej va kasb-hunar rejalari bilan qanday bog'liqligini tushuntirishda yordam beradigan manbadir.

Darslar mazmuni FDIC Money Smart Program asosida moslashtirilgan, davlat standartlariga mos keladi va turli fanlararo bog'lanishga ega. Bu o'quv dasturi qo'llanmasi bo'lganligi sababli, undagi darslar zaruratga qarab moslashtirilishi uchun ishlab chiqilgan. Ushbu o'quv dasturi mustaqil qo'llanilish uchun mo'ljallanmagan, balki boshqa fan sohalariga integratsiya qilinib, darslarni boyituvchi va kengaytiruvchi mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning moliyaviy jihatdan sog'lom voyaga yetgan shaxslar bo'lishlari uchun poydevor yaratishga xizmat qiladi.

O'quv dasturi kengaytmalari bo'yicha savollar uchun quyidagi email manziliga murojaat qiling: savingtogether@schools.nyc.gov.

42. Kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arma hisobini qanday ochaman?

Hisob ochish bo'yicha ko'rsatmalar va yordam olish uchun quyidagi manzilga tashrif buyuring: nyckr.org/options-faq yoki nyckr.org/events-faq saytida navbatdagi Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) bo'yicha onlayn seminarlarda qatnashing. Shuningdek, NYC Kids RISE ishonch telefoniga [833-543-7473](tel:833-543-7473) qong'iroq qiling yoki info@nyckidsrise.org emailiga xat yozing.

43. Qaysi kollej va kasb-hunar jamg'arma varianti men uchun eng yaxshi ekanini qanday bilsam bo'ladi?

Kollej yoki kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arishning turli usullari mavjud. Variantlarni solishtirish uchun zarur vositalar va ma'lumotlar olish maqsadida quyidagi manzilga tashrif buyuring: nyckr.org/options-faq yoki nyckr.org/events-faq saytida navbatdagi Kollej uchun jamg'arish dasturi (Save for College Program) bo'yicha onlayn seminarlarda qatnashing. NY 529 Direct Plan haqida batafsil ma'lumot uchun nysaves.org saytiga tashrif buyuring yoki [877-NYSAVES \(877-697-2834\)](tel:877-NYSAVES) raqamiga qo'ng'iroq qiling.

Amalgamated bankining Kollej uchun jamg'arish dasturi hisobi (Amalgamated Save for College Bank Account) haqida batafsil ma'lumot uchun amalgamatedbank.com/find-a-branch-or-atm saytiga tashrif buyuring yoki [800-662-0860](tel:800-662-0860) raqamiga qo'ng'iroq qiling.

Shuningdek, ko'pgina boshqa shtatlar ham o'zlarining 529 jamg'arma tariflarini taklif qiladi va jamg'arma maqsadlaringiz uchun turli banklar xizmati mavjud. Bu opsiyalarning barchasi sizga kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arish

maqsadlaringizga erishishda yordam berishi mumkin. Biroq, ushbu boshqa opsiyalar Kollej uchun jamg'arish dasturiga ulanmagan. NYC Kids RISE har bir oilani mavjud kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arish imkoniyatlarini o'rganishga chorlaydi, ammo investitsiya bo'yicha maslahat bermaydi. Siz jamg'arish yoki investitsiya qilishdan oldin o'z moliyaviy holatingizni inobatga olishingiz kerak va zarur bo'lsa, mutaxassis investitsiya maslahatchisiga murojaat qilishingiz mumkin.

44. Dasturda ro'yxatga olinishim uchun o'z nomimga kollej va kasb-hunar jamg'arma hisobini ochishim shartmi?

Yo'q, farzandingiz Kollej uchun jamg'arish dasturida (Save for College Program) ro'yxatga olinishi va NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) ega bo'lishi uchun siz o'zingizning kollej va kasb-hunar jamg'arma hisobingizni ochishingiz yoki mablag' kiritishingiz shart emas. Biroq, NYC Kids RISE har bir oilani farzandlari uchun mavjud opsiyalarni o'rganishga va shaxsiy jamg'arma hisobini ochishga undaydi. Yordam olish uchun NYC Kids RISE [833-543-7473](tel:833-543-7473) raqamiga qo'ng'riq qiling, info@nyckidsrise.org emailiga xat yozing, nyckr.org/events-faq saytida Kollej uchun jamg'arish dasturi bo'yicha onlayn seminarlarda qatnashing.

JAMG'ARMA RAG'BATI (SAVINGS MATCH)

45. Jamg'arma rag'bati (Savings Match) qanday ishlaydi?

Birinchi sinfga ilk bor borgan kundan boshlab, 3 ta Asosiy bosqichni (Building Blocks) to'liq bajargan oilalar bir martalik Jamg'arma rag'bati mukofotini olish huquqiga ega bo'ladi. NYC Kids RISE siz kiritgan mablag'ni ulangan kollej va kasb-hunar jamg'arma hisob raqamiga maksimal 100\$ gacha dollarga dollar nisbatda moslashtiradi.

Agar siz farzandingizning NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) jamg'arma hisobini ulagan bo'lsangiz (ya'ni 2-bosqichni bajargan bo'lsangiz), NYC Kids RISE oilalaringizning qo'yilmalarini kuzatib boradi va ularni avtomatik tarzda rag'batlantiradi.

Asosiy bosqichlar va Jamg'arma rag'bati mukofotlari beshinchi sinfgacha amal qiladi, bundan faqat 30-okrug geografik hududidagi 39 ta sinov maktabida beshinchi sinf yoki undan yuqorida Dasturga qo'shilgan o'quvchilar mustasno. Ushbu o'quvchilar 3 ta Asosiy bosqichni bajarish va Jamg'arma rag'bati bo'yicha mukofotlarni sakkizinchi sinfning so'nggi kunigacha olishda davom etishlari mumkin. Ayni paytda, 2021-2022 o'quv yilida bog'chaga, 2022-2023 yilda birinchi sinfga, 2023-2024 yilda ikkinchi sinfga, 2024-2025 yilda uchinchi sinfga yoki 2025-2026 yilda to'rtinchi sinfga borgan o'quvchilarga tatbiq etilmaydi va faqat beshinchi sinf tugaguniga qadar mukofotlar olish huquqiga egadirlar.

46. Farzandimning hisobiga Jamg'arma rag'bati (Savings Match) tushganini qanday bilaman?

NYC Kids RISE tashkiloti farzandingizning NYC Stipendiya hisobiga (NYC Scholarship Account) tushirgan mablag'ni ko'rish uchun nyckr.org/login-faq sahifasi orqali Jamg'arma trekeriga qayta kiring va pastga "Kollej va kasb-hunar jamg'arma hisoblaringiz" deb nomlangan bo'limiga varaqlang. "Stipendiya hisobi" yorlig'iga bosing va tranzaksiyalar tarixini ko'rish uchun pastga varaqlang. Ulangan kollej jamg'arma hisobingizga har bir mos keladigan depozit uchun "Jamg'armalar rag'bati" deb belgilangan tranzaksiyani ko'rasiz.

47. Farzandim uchun ochilgan kollej va kasb-hunar jamg'arma hisobiga muntazam ravishda qancha mablag' ajratishni boshlashim kerak?

Har bir oilaning holati o'ziga xos. Kollej va kasb-hunar uchun jamg'arish - bu oilaning umumiy moliyaviy ahvolidan muhim tarkibiy qismidir. Qancha mablag' jamg'arish kerakligi sizning shaxsiy moliyaviy holatingizga bog'liq. Bu daromadningiz, mavjud aktivlaringiz, qarzlaringiz, muntazam xarajatlaringiz, davlat imtiyozlari va kredit holatingizni o'z ichiga oladi. NYC Kids RISE har bir oilaga o'z holatiga mos ravishda istalgan miqdorda jamg'arishni boshlashni tavsiya qiladi. Farzandingiz yoshligida jamg'arishni boshlash - miqdordan qat'i nazar - katta farq qilishi mumkin.

Agar siz jamg'armani umumiy moliyaviy rejangizga qanday kiritishni bilmayotgan bo'lsangiz, shahardagi NYC moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish markazlariga (NYC Financial Empowerment Center) murojaat qiling. NYC moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish markazida siz professional moliyaviy maslahatchi bilan individual uchrashuv o'tkazishingiz mumkin. U sizga qarzlaringizni kamaytirish, kredit reytingingizni yaxshilash, budjet tuzish, bank hisobi ochish, jamg'arishni boshlash va kelajakni rejalashtirish kabi masalalarda yordam beradi. Shuningdek, siz farzandingizning kollej va kasb-hunar ta'limi uchun jamg'arish bo'yicha ma'lumot olishingiz va jamg'arishni boshlash rejasini tuzishingiz mumkin.

Yaqin atrofdagi moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish markazida uchrashuv belgilash uchun 311 raqamiga qo'ng'riq qiling yoki quyidagi saytga tashrif buyuring: nyc.gov/talkmoney.

NYC Kids RISE - bu notijorat tashkilot bo'lib, Nyu-York shahri va NYC davlat maktablari (NYC Ta'lim Departamenti) bilan hamkorlikda Kollej uchun jamg'arish dasturini (Save for College Program) boshqaradi.